

## BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Artikova Nodira Shavkat qizi,*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistr talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotid pedagogoglarning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan hold faoliyat olib borish jarayonining samaradorlik xususiyatlari va ularda foydalanishda e'tibor berish zarur bo'lgan jihatlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, o'yin, innovatsiya, kreativ pedagog, kompetensiya, shaxs, interfaol metodlar, globallashuv, ijtimoiylashuv, jamiyat, integral yondashuv, loyihali ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim

**Аннотация:** В данной статье говорится об особенностях эффективности процесса деятельности педагогов, использующих инновационные педагогические технологии в дошкольной образовательной организации и аспектах, на которые необходимо обратить внимание при их использовании.

**Ключевые слова:** технология, игра, инновация, творческий педагог, компетентность, интерактивные методы, глобализация, социализация, общество, комплексный подход, проектное обучение, развивающее обучение, личность.

**Annotation:** This article talks about the efficiency features of the process of activity of pedagogues using innovative pedagogical technologies in the preschool educational organization and the aspects that need to be paid attention to in their use.

Jamiyatda mutlaq ijodiy yoki mutlaqo ijodiy bo'lmagan faoliyat mavjud emas. Faoliyatning asosiy maqsadi yangi narsalarni yaratish (masalan, ilmiy faoliyat) va ko'paytirish (mavjudini seriyali ishlab chiqarish) bo'lgan faoliyat turlarini ta'kidlash mumkin. Har qanday yo'nalishdagi (progressiv va regressiv) faoliyatga ijodiy yondashish uning sub'ektini rivojlanishi va uning ijodiy o'z- o'zini anglashini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishadi. Shuning uchun maktabgacha ta'limdagi innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan bog'lanib ketgan. Ammo ularni bir xil qarash deb bo'lmaydi. Chunki innovatsiyalar turlicha yo'nalishda foydalaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi o'z faoliyatini prinsipial amalga oshirish uchun: samarali (mavzuga yo'naltirilgan), tejamkor (shaxsga yo'naltirilgan), hamkorlik texnologiyalariga ega bo'lishi lozim.

Kreativlik- insonning yangi, o'ziga xos, betakror narsalarni yaratish qobiliyatidir. Agar "kreativlik" tushunchasi insonning ijodkorlik qobiliyatini aks ettirsa, kreativlik bu qobiliyatni amalga oshirish jarayoni, ya'ni ijodiy imkoniyatni haqiqatga aylantirishdir. Boshqa tomondan, faqat kreativ, ijodiy faoliyatda ijodkorlikning shakllanishi va rivojlanishi sodir bo'ladi.

Rus pedagogi V.V.Bauluk kreativlikni rivojlantirish dialektik xarakterga ega ekanligini yozadi. Pedagogik faoliyatda kreativlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan holda, muallif bo'lajak pedagog tarbiyachilarni turli faoliyatga qiziqtirish kerakligini ta'kidlaydi. Demak, inson kreativligi ijodkorlikning asosi, ijodkorlik (ijodiy faoliyat) esa uning ijodining shakllanishi va rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ijodiy faoliyatda shaxsning ijodkorligini ro'yobga chiqarish darajasi, bizning fikrimizcha, "kreativ ijodkorlik" atamasi bilan ifodalanishi kerak.

Pedagogik adabiyotlarda "pedagogik ijodkorlik" tushunchasi qo'llaniladi. Bu odatda pedagog faoliyati sifatida ta'riflanadi, bunda ta'lim muammolarini hal qilishda sifat jihatidan yangi va o'ziga xos ijodiy mahsullar hosil bo'ladi, bu esa o'qitish va tarbiya nazariyasi hamda amaliyotini boyitadi. Bizning e'tiborimiz markazida bo'lajak martabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi kreativligi va ijodkorligi turganligini ta'kidlaydigan bo'lsak, o'z mazmuniga ko'ra tarbiyachi faoliyati ham pedagogik, ham ijodiydir. Ta'limda ijodkorlikni o'rganishning muhim uslubiy ahamiyati undagi mahsuldor ijod bilan bir qatorda reproduktiv ijodkorlikni ham aniqlash muhimdir. Samarali, produktiv ijodda unda yaratilgan yangilik ta'limning barcha sub'ektlari va umuman jamiyat uchun muhim bo'ladi. Bu ob'ektiv yangilik. Reprodktiv ijodda ijod sub'ekti tomonidan "yaratilgan" yangilik faqat o'zi uchundir. Bu subyektiv jihatdan yangi.

Kasbiy ta'limda samarali ijod sub'ektlari pedagoglardir (lekin har doim ham emas), lekin ba'zida talabalarda ham kreativ qobiliyat paydo bo'ladi. Talabalarning ta'lim faoliyati (o'z-o'zini tarbiyalash) pedagogik faoliyatdir. Shuning uchun bu faoliyatdagi kreativlik, ijodkorlik ham pedagogikdir. Zero, maqsad, mazmun va vositalar nuqtai nazaridan talabalarning faoliyati kasbiy subyektivlikni shakllantirishda asosan ta'limiy- tarbiyaviy faoliyatiga mos keladi. Shaxsning ijodiy o'zini o'zi anglashi uning eng yuqori muvaffaqiyatidir. Shu sababli, bizning fikrimizcha, zamonaviy kasbiy ta'limning ustuvor vazifasi barcha bo'lajak universitet bitiruvchilarida kreativlik, ijodkorlik yoki boshqacha qilib aytganda, "kreativ shaxs" kabi integratsion sifatni shakllantirishdir.

Pedagogik adabiyotlarda "kreativlik" tushunchasining mazmuni "ijodiy shaxs" tushunchasi orqali ochib beriladi, u quyidagicha tushuniladi: 1) yangi narsa yaratish jarayonining hukmronligi (A. B. Brushlinskiy, V. N. Pushkin, V. A. Moleno); 2) ijodiy fikrlash natijasi (O. K. Tixomirov); 3) qarama-qarshiliklarni noan'anaviy tarzda hal qilishga ijtimoiy-psixologik munosabat (E. V. Kolesnikova); 4) shaxsning ijodiy o'zini

o'zi anglash va o'zini o'zi anglash qobiliyatining darajasini belgilaydigan xarakterli xususiyati (M. Kolosova); 5) rivojlangan yangilik hissi; hamma narsaga ochiqlik; bilimlar va e'tiqodlar tizimi sifatida qaralgan.

“Hech narsa so‘ramagan hech narsani o‘rganmaydi”, deb yozadi avstraliyalik yozuvchi E. Eshenvah,. Bizning fikrimizcha, ijodiy yo'naltirilgan ta'limda “Nima uchun? Nimaga? kabi savollarning uzoq umr ko'rishini kafolatlashi va jamiyat manfaati uchun ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqargan odamlar sonini kamida bir necha barobar oshirishga qodir. Demakki, kreativlikni rivojlantirishning asosiy ob'ektlari MTTdagi uch yoshlilar bo'lib, ular bilan ishlaydigan tarbiyachinig kreativligi va ijodkorligi bo'lajak individumni betakror shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi. Har bir individ umuminsoniy (universal) Men va yagona (individual) Menning birligidir. Insonni o'rganadigan barcha fanlar nafaqat dunyoning ilmiy manzarasini yaratadi, balki shu bilan birga insonning umumiy qiyofasini va shu bilan har bir shaxsga xos bo'lgan umuminsoniy tasvirni yaratadi. Kreativlik- bu undividuallikdir. Har bir alohida olingan shaxs o'ziga xos kreativ bo'ladi.

Ijodkorlik, kreativlik, ilmiy o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini tarbiyalash (qo'llash) bu bilimlarni amaliyotda qo'llashdir. Nega deysizmi? Chunki har qanday kasbiy faoliyatda (va noprofessional) amaliyot ob'ektiv-sezgi faoliyatidir (u har doim insonning his-tuyg'ulari bilan namoyon bo'ladi). Talabalarning o'quv-amaliy faoliyatidagi kreativligi, ijodkorligi amaliyot jarayonidagi bilimga va talabaning o'z-o'zini tarbiyalashga, o'z-o'zini bilish jarayonida olgan barcha bilimlaridan birlamchi foydalanishga asoslanadi. Amaliyot jarayonida talabalarning ijodkorligi ularning kreativligini shakllanish darajasining eng yuqori rivojlantirish omili hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni bolalar ta'limiy jarayonida qo'llashda avvalo yuqoridagi bola kompetensiyalarini shakllantirishning qay birida maqbulligini aniqlash hamda ustuvor jihatlarini hisobga olish kerak. Masalan, mantiqiy o'yinlar va tajribalar ustida ishlash bolaning bilish jarayonida xizmat qilsa, so'z o'yinlari kommunikativlikni oshiradi. Shu bois usullarni saralash va muvofiqlashtirish asosida olib borish zarur.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak mutaxassislarda kreativlikni rivojlantirish dialektik jarayon bo'lib, u nazariy va amaliy faoliyat uyg'unligi hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Байлук В. В. Научная деятельность студентов: системный анализ. М., 2018. С. 62
2. Байлук В.В. Человечествоведение Самообразовательная и самовоспитательная реализация личности как законы успеха. Екатеринбург, 2012.
3. Лабзина П. Г. Проблемы развития креативности студентов технического вуза как способности к творчеству // Вестник Самарского гос. тех. ун-та. 2011. № 16. С. 68–72. 44